

FRANSUZ TILIDA O‘ZLASHTIRMA NUTQ VA UNING IFODA USULLARI

Sayfullayev Baxshillo Nematulloyevich

Buxoro davlat universiteti

fransuz filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqola kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo‘nalishlaridan biri o‘zga nutq va uning ifoda usullaridan biri bo‘lgan o‘zlashtirma nutqning fransuz tilida qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Unda asosan diqqat e’tibor o‘zlashtirma nutq (*le discours indirect*)ning matniy xususiyatlariga qaratilgan. Shu bilan birga fransuz tilida o‘zga nutq turlarining funksional-semantik xususiyatlariga izoh berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zga nutq, o‘zlashtirma nutq, nutq fe’li, qo‘shirnoq, tire, ikki nuqta, zamon moslashuvi.

Аннотация: Статья посвящена способам выражения во французском языке чужой речи, являющейся одним из важных направлений категории коммуникативной цели, и ее простому приему, косвенной речи. В нем основное внимание сосредоточено на текстовых особенностях косвенной речи (*le discours indirect*). При этом объясняются функционально-семантические особенности других типов речи во французском языке.

Ключевые слова: чужая речь, косвенная речь, речевой глагол, кавычка, дефис, двоеточие, согласование времён.

Abstract: The article is devoted to the ways of expressing someone else’s speech in French, which is one of the important areas of the category of communicative purpose, and its simple technique, indirect speech. It focuses on the textual features of indirect speech (*le discours indirect*). At the same time, the functional and semantic features of other types of speech in French are explained.

Key words: someone else’s speech, indirect speech, speech verb, quotation mark, hyphen, colon, tense agreement.

Kirish. So‘zlovchi hamma vaqt ham o‘z fikrinigina bayon etibgina qolmay, ba‘zan u o‘zganing gapini ham o‘z nutqi ichida ishlatadi. Shu asosda qo‘shma gapning yana bir maxsus turi hosil bo‘ladi. O‘zganing gapini ifoda etuvchi shaxs muallif, uning gapi esa muallif gapi deyiladi. Muallifning ma‘lum shaxs fikrini o‘z nutqi ichida keltirishi o‘zganing gapi, gapi ifoda qilayotgan shaxs so‘zlovchi sanaladi. So‘zlovchi borliq haqida o‘z fikrini emas, o‘zgalarning fikri yoki suhbatini bayon qiladi. O‘zga

nutq orqali soʻzlovchi adresatni oʻzi yoki adresat amalga oshirgan voqea-hodisa mazmunidan xabardor qiladi.

Asosiy qism. Oʻzga nutqning ifodalanishi turli uslubda turlicha boʻlib har biri oʻziga xos grammatik meʼyorga ega.

Fransuz tilida oʻzga nutqni uzatishning 3 xil turi mavjud [1, 254]:

Koʻchirma nutq (le discours direct)

Oʻzlashtirma nutq (le discours indirect)

Oʻziniki boʻlmagan koʻchirma nutq (le discours indirect libre)

Koʻchirma nutqda oʻzganing nutqi shakl va mazmun jihatdan oʻzgartirilmay tinglovchiga yetkaziladi. Soʻzlovchining nutqini soʻzma-soʻz berishning zarurati boʻlmagan paytda oʻzlashtirma gap qoʻllaniladi. Baʼzan oʻzganing gapi koʻchirma gap bilan oʻzlashtirma gap oraligʻida boʻladi. Bunda oʻzganing fikri muallif gapisiz-soʻzlovchining ishtirokisiz bayon qilinadi, yaʼni muallif koʻchirma gapdagi soʻzlovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun bunday gaplar oʻziniki boʻlmagan koʻchirma gap hisoblanadi [4, 294]. Oʻzga nutqning bu turi faqat badiiy adabiyotga xos boʻlib, muallif matniga qoʻshilgan xolda asar qahramonlari fikr va tuygʻusini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

Oʻzlashgan gap nutqda koʻp ishlatiladi. Chunki oʻzga gapning bu turi katta jummalarni qisqartirib aytishga qulaylik tugʻdiradi. Natijada koʻchirma gap ikkinchi marta muallif tomonidan oʻzlashtiriladi, muallif birinchi marta koʻchirma gapni gapiga yedirib, oʻz uslubida qayta ishlab chiqadi. Bu oʻzgarish natijasida koʻchirma gap tarkibida kishilik olmoshi boʻlmaydi, feʼlning shaxs, son kategoriyalari koʻrsatilmaydi, butun gap muallif nomidan III shaxs orqali ifodalanadi [10, 501–502]. Oʻzbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976. – 560 b. Oʻzlashtirma nutqda xabar manbai bir muncha mavhum boʻladi va odatda kontekstual yoki matniy tahlil orqali aniqlanadi. Oʻzlashtirma gapda tinish belgilari xabarning ifoda qilinish holatiga nisbatan qoʻllaniladi. Bundan tashqari, qoʻshtirnoqlar ishlatilmaydi.

Fransuz tilida oʻzbek tilidan farqli oʻlaroq oʻzlashtirmalik fakat sintaktik yoʻl bilan amalga oshiriladi. Sintaksis nuqtai nazaridan oʻzlashtirma gap toʻldiruvchi ergash gapga mos kelib bunday qoʻshma gapda zamonlar moslashadi. Oʻzlashtirma gap darak, buyruk va soʻrok formalarda boʻladi [4, 227, 228].

Frantsuz tilida **le discours indirect** (*oʻzlashtirma nutq*)da ogʻzaki yoki yozma nutq morfosintaktik moslashadi. Oʻzganing gapini grammatik va ayrim leksik xususiyatlarini oʻzgartirgan holda oʻzlashtirib bayon qilib berishi *oʻzlashtirma nutq* deyiladi. Oʻzlashtirma nutq oʻzganing gapi yoki fikrini oʻzlashtirib uni nutq feli (dire, demander, etc) orqali ergashgan qoʻshma gap shaklida maʼnosini uzatishga xizmat

qiladi [254-255] : Hervé-D. Béchade. Syntaxe du français moderne et contemporain (Fondamental) . –Paris: France, 1993. –338.

O'zlashtirma nutq o'zga nutqni uzatishning yana bir usulidir. Bunda u muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq fe'li (*masalan, dire-aytmoq, s'écrire-hayqirmoq, demander-so'ramoq, exiger-talab qilmoq va hokazo*) ning tobe bo'lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi. Bunda muallif nutqi bosh gap funksiyasini bajarsa, aytilgan gap ergash gap vazifasida keladi va ular *que* bog'lovchisi va *si, de* hamda bog'lovchi vazifasida keladigan boshqa leksik birliklar bilan bog'lanadi.

O'zlashtirma nutq o'zga nutqni uzatishning yana bir usulidir. Bunda u muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq feli (*masalan, dire-aytmoq, s'écrire-hayqirmoq, demander-so'ramoq, exiger-talab qilmoq va hokazo*) ning tobe bo'lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi. Bunda muallif nutqi bosh gap funksiyasini bajarsa, aytilgan gap ergash gap vazifasida keladi.

Il a exigé que tous les employés ont interrompu ma pause déjeuner et a procédé à la salle de réunion.

Yana bir misol:

J'ai dit que je serai de retour en retard et je n'ai pas eu à attendre.

Zamon, shaxs va shu kabi boshqa moslashuvlar o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biridir. Grammatik nuqtai nazardan bayon etuvchi nutqiga bo'ysunuvchi aytilgan gap ergash gap shaklini oladi va hikoyaning bir qismi bo'lgan holda odatda o'tgan zamonda keladi.

Jean prétend qu'il est malade. Il a ajouté qu'il n'irait pas travailler aujourd'hui, et il a eu le culot de me demander d'appeler le médecin !

O'zlashtirma va ko'chirma nutqning konstruktsiyalari bir-biriga ma'lum darajada o'xshaydi. Ular ikki qismdan iborat bo'lib, biri muallif nutqi, ikkinchisi esa o'zganing xabari, buyrug'i yoki so'rog'idir. Ko'chirma nutqning o'zlashtirma nutqdan asosiy farqi shundaki, muallifning ko'chirma nutq qismi nisbatan mustaqil bo'lib, nutqda ma'lum bo'lgan turli xil stilistik vositalar orqali etkazilishi mumkin.

Fransuz tilida bog'lovchi tanlash, zamon va shaxs moslashuvlari o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biridir.

O'zlashtirma nutqda aytilgan gap turiga qarab turli xil bog'lovchi vazifasidagi leksik birliklar (*que, si, de*) qo'llaniladi:

a) darak va undov gaplar o'zlashtirma gap sifatida berilganda "*que*" (**a, e, i, o, u, y** va **h** harflar bilan boshlangan so'zlardan oldin **qu'**) bog'lovchisi qo'llaniladi:

Le journaliste dit qu'il y a une manifestation contre la réforme.

b) fransuz tilida buyruq gap ikki xil usulda o'zlashtirma gapga aylantiriladi. Biri sodda gap tarzida kelib unda aytilgan gapning o'zlashtirilgan buyruq qismi asosiy feldan “de”+infinifit ko‘rinishida voqelanadi, ikkinchisi esa xohish istak (*subjonctif*) mayli qo‘llanilgan to‘ldiruvchi ergash gap ko‘rinishini oladi.

*Il m'a dit **de faire** ce rapport-là.*

*Il m'a dit **que je fasse** ce rapport-là.*

v) so‘roq so‘zsiz va **est-ce que** iborasi bilan yasalgan so‘roq gaplar o‘zlashtirilganda **si/s’** (**il** yoki **ils** dan oldin) bog‘lovchisidan foydalaniladi:

*Il demande **si** tu aimes Bruxelles.*

*Le journaliste demande **s’il** y a une manifestation contre la réforme.*

g) so‘roq so‘zli so‘roq gaplar o‘zlashtirilganda so‘roq so‘z bog‘lovchi vazifasida qo‘llaniladi:

*Le journaliste demande **où/quand/pourquoi** il y a une manifestation contre la réforme.*

d) ba’zi holatda ayrim so‘roq so‘zli so‘roq gap o‘zlashtirib bayon qilinganda maxsus so‘roq so‘z xuddi shu ma’noli bog‘lovchiga o‘zgaradi:

Qu’est-ce que/que => Ce que

*Il m'a demandé **ce que** je faisais.*

Qu’est-ce qui=> Ce qui

*Il m'a demandé **ce qui** me faisait plaisir.*

Qui est-ce qui / qui=> qui

*Il m'a demandé **qui** était volontaire.*

Qui est-ce que=>qui

*Il m'a demandé **qui** j'avais rencontré.*

A qui est-ce que=>à qui

*Il m'a demandé **à qui** je pensais.*

De qui est-ce que=>de qui

*Il m'a demandé **de qui** je parlais.*

Avec qui est-ce que=>avec qui

*Il m'a demandé **avec qui** je partais en vacances.*

O‘zlashtirma nutqda zamonlar moslashuvi xam muxim rol o‘ynaydi. Bunda bosh va ergash gap kesimlari zamon jihatidan o‘zaro moslashadi:

a) fransuz tilida bosh gap kesimi hozirgi zamon (*présent*) yoki kelasi zamon (*futur*)da bo‘lsa, ergash gapda zamon o‘zgarishsiz qoladi:

Présent=> présent

*Il **déclare** qu’il va partir demain.*

b) bosh gap kesimi o'tgan zamon (**passé**)da kelsa, ergash gapda zamon quyidagicha o'zgaradi:

Présent=>Imparfait

*Il m'a dit qu'il **allait** bien.*

Passé composé/ Passé simple=>Plus-que-parfait

*Il m'a dit qu'il **avait** tout **vendu**.*

Futur simple=>conditionnel présent

*Il m'a dit qu'il **téléphonerait**.*

Future antérieur=>Conditionnel passé

*Il m'a dit qu'ils **auraient** terminé la chambre avant de venir.*

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda zamon bilan birga payt ravishlari ham o'zaro moslashadi. Bu hol ayniqsa hikoya janrida ko'p uchraydi:

Aujourd'hui =>Ce jour-là

*Lucie pensait qu'elle allait faire les courses **ce jour-là**.*

Hier =>La veille

*Le commerçant lui a dit qu'il avait été livré **la veille**.*

Demain =>Le lendemain

*Mais il a ajouté que sa commande n'arriverait que **le lendemain**.*

(jour) prochain =>Le (jour) suivant

*Il a terminé en lui disant qu'il espérait qu'elle n'arriverait pas que le mardi **suivant**.*

Fransuz tilidagi payt ravishlarining o'zlashtirma nutqdagi bu o'zgarishlari o'zbek tiliga xos emas.

Fransuz tilida o'zlashtirma nutqda zamon, payt ravishlari bilan bir qatorda shaxs moslashuvi ham mavjud bo'lib quyidagicha tavsiflanadi:

Je=>il,elle: *Il m'a dit qu'**il/elle** était là.*

Tu=>je: *Il m'a dit que **je** viendrais aussi.*

Vous=>nous: *Il m'a dit que **nous** viendrions.*

Nous=>ils: *Il m'a dit qu'**ils** seraient là.*

Votre=>notre/mon: *Il m'a dit qu'il n'avait plus **mon** livre.*

Vos=>nos/mes: *Il m'a dit qu'il n'avait plus **nos/mes** livres.*

Ma=>sa: *Il m'a dit qu'il était dans **sa** voiture.*

Ton=>mon: *Il m'a dit qu'il réglerait **mon** problème.*

A toi=>le mien: *Il m'a dit que ce pull était **le mien**.*

A moi=>à lui: *Il m'a dit que ce chat n'était pas **à lui**.*

Ce=> ce..là

*Il m'a dit qu'il allait régler **ce** problème-**là**.*

Il m'a dit qu'il n'avait plus ce livre-là.

Cet=>cet... là: *Il m'a dit que cet enfant-là était sage.*

Xulosa. Fransuz tilida esa o'zlashtirmalik hodisasi sintaktik yo'l bilan amalga oshiriladi. Sintaksis nuqtai nazaridan o'zlashtirma gap to'ldiruvchi ergash gapga mos kelib, muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq feli (masalan, dire-aytmoq, s'écrire-hayqirmoq, demander-so'ramoq, exiger-talab qilmoq va hokazo) ning tobe bo'lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi. Bunda muallif nutqi bosh gap funksiyasini bajarsa, aytilgan gap ergash gap vazifasida keladi va ular que bog'lovchisi va si, de hamda bog'lovchi vazifasida keladigan boshqa leksik birliklar bilan bog'lanadi. Fransuz tilida bog'lovchi tanlash, zamon va shaxs moslashuvlari o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Hervé-D. Béchade. Syntaxe du français moderne et contemporain (Fondamental) . –Paris: France, 1993. –338.
2. Jumayev E. -(A) Р ЭКАН ШАКЛИ ВА ЎЗЛАШТИРМА БУЙРУҚ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
3. Jumayev E. О'zbek adabiy tilida so'roq gap va o'zlashtirmalik //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
4. Маллина Л. Е., Андрейчикова Л. П., Турниёзов Ў. Француз тили грамматикаси (Морфология, синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 280 б.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.
6. Nematulloevich S. B. TRANSLATION SKILLS IN FRENCH-UZBEK LITERATURE RELATIONS (ON THE EXAMPLE OF THE UZBEK TRANSLATION OF ALBERT CAMUS'S" PLAGUE") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
7. Рўзиев Я. Б. ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА КЎЧИРМА ВА ЎЗЛАШТИРМА НУТҚНИНГ ТАЛҚИНУ ТАВСИФИ //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – 2022. – С. 68.
8. Ruziev Y. ЎЗБЕК ТИЛИДА БИРИНЧИ ТУР ЎЗЛАШТИРМАЛИК ВА ГАП //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
9. Sayfullayev B. NOQARDOSH TILLARDA О'ZLASHTIRMALIK: o'zbek va fransuz tillari misolida. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=DTm420UAAAAJ&citation_for_view=DTm420UAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

10. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 391 б.
11. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976.– 560 b.
12. Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 315 б.
13. Hojiyeva G.S. Linguvocalary Properties Of Art Terms (On The Example Of French And Uzbek Languages). International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). ISSN: 2509-0119. Vol. 25 No. 1. February 2021, pp. 09-15 <https://ijpsat.ijsht-journals.org/index.php/ijpsat/article/view/2746/1628>
14. Gulchehra Hojiyeva. NATIONAL IDENTITY AND LINGUISTICAL ANALYSIS OF TRANSLATION OF ART TERMS IN UZBEK LANGUAGE. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. P-ISSN: 2204-1990. Vol. 27, No. 2, 2021. Pages 1651-1660. DOI: 10.47750/cibg. 2021.27.02.174 https://www.cibgp.com/article_9597.html